

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BADIIY MATNDA BUYRUQ-XITOB UNDOVLARINING LINGVOPOETIK QIMMATI

Ibragimova Fazilat Erkinovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, kafedra mudiri, dotsent.

e-mail: annora1976@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-5234-4938>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada gaplarning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi muhim til vositalaridan biri bo'lgan buyruq-xitob undovlarning badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, ularning qahramon ruhiy holatini, his-hayajonini, munosabatini va nutqiy ta'sirchanligini ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, buyruq-xitob undovlarning badiiy matnning obrazlilik, ekspressivligi va pragmatik ta'sir kuchini oshirishdagi funksional imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, gap, buyruq-xitob undovlari, ekspressiv-emotsionallik, lingvopoetik belgi.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ ПОБУДИТЕЛЬНО-ВОСКЛИЦАТЕЛЬНЫХ МЕЖДОМЕТИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Ибрагимова Фазилят Эркиновна

Джизакский государственный педагогический университет, заведующая кафедрой, доцент.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются лингвопоэтические особенности побудительно-восклицательных междометий как одного из важных языковых средств, обеспечивающих эмоционально-экспрессивную окраску предложений в художественном тексте. Особое внимание уделяется их роли в выражении психологического состояния, эмоций, отношения персонажей, а также в усилении выразительности речи. Кроме того, анализируются функциональные возможности побудительно-восклицательных междометий в повышении образности, экспрессивности и прагматического воздействия художественного текста.

Ключевые слова: художественный текст, предложение, побудительно-восклицательные междометия, экспрессивно-эмоциональность, лингвопоэтический признак.

THE LINGUPOETIC VALUE OF IMPERATIVE-EXCLAMATORY INTERJECTIONS IN LITERARY TEXTS

Ibragimova Fazilat Erkinovna

Jizzakh State Pedagogical University, Head of Department, Associate Professor.

Abstract.

This article examines the linguopoetic features of imperative-exclamatory interjections as one of the important linguistic means that contribute to the emotional and expressive character of sentences in literary texts. Particular attention is paid to their role in conveying the psychological state, emotions, attitudes of characters, and in enhancing the expressiveness of speech. The article also analyzes the functional potential of imperative-exclamatory interjections in strengthening the imagery, expressiveness, and pragmatic impact of a literary text.

Keywords: literary text, sentence, imperative-exclamatory interjections, emotional expressiveness, linguopoetic feature.

Kirish. So'z badiiy matnda boshqa so'zlar va undan katta birliklar bilan munosabatga kirishar ekan, o'zining asosiy leksik ma'nosi bilan cheklanib qolmaydi. Muallifning badiiy mahorati, individual uslubi va tasviriy niyatiga ko'ra u semantik jihatdan murakkablashib, xilma-xil qo'shimcha ma'no, emotsional-ekspressiv bo'yoq hamda kutilmagan mazmunlarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi [1: 146]. Shu jihatdan badiiy matndagi har bir til birligi muayyan poetik vazifani bajarib, asarning ta'sirchanligi va obrazlilikini ta'minlashga xizmat qiladi. Buyruq-xitob undovlari ham ana shunday lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo'lgan til birliklaridan biri hisoblanadi.

Buyruq-xitob undovlari, asosan, suhbatdoshni muayyan ish-harakatni bajarishga undash, biror faoliyatni boshlash yoki davom ettirishga da'vat etish, aksincha, harakatdan to'xtatish, ogohlantirish, tinchlantirish kabi kommunikativ maqsadlarda qo'llanadi. Badiiy matnda esa ularning vazifasi yanada kengayib, qahramonning ruhiy holati, hayajoni, qat'iyligi, qo'rquvi, noroziligi yoki boshqa hissiy munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli buyruq-xitob undovlari personaj nutqining tabiiyligi va jonlilikini ta'minlash bilan birga, matnning emotsional-ekspressiv ta'sirini ham kuchaytiradi.

Bu tip undovlardan **gah** (qarg'ani), **pish-pish** (mushukni), **beh-beh**, **tu-tu-tu** (tovuqni), **bah-bah** (itni) kabi undovlar hayvon va qushlarni chaqirish uchun, **hayt** (hayvonlarni), **pisht** (mushukni), **kisht** (tovuqni), **chuh** (otni), **xix** (eshakni), **qurey-qurey** (qo'yni) kabi undovlar hayvon va qushlarni haydash uchun ishlatilsa, **dirr**, **tak** (otni), **xo'sh**, **xo'o'sh** (sigirni), **ho'k**, **ho'o'k** (ho'kizni), **ishsh** (eshakni), **chix** (tuyani) kabi undovlar hayvonlarni harakatdan to'xtatish, tinchitish uchun ishlatiladi [2: 440].

Demak, buyruq-xitob undovlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Hayvonlar va qushlarni chaqirish uchun.
2. Hayvon va qushlarni haydash uchun.
3. Hayvonlarni harakatdan to'xtatish, tinchitish uchun.

Masalan:

Goh-goh **"chuh!"** deb otga bir qamchi urib qo'yadi... (Oybek).

Bu misolda buyruq-xitob undovi otni haydash uchun qo'llangan.

...Notanish odamlar **"chux-chux"** deb oldingi tuyalarni cho'ktirmoqda.

Bu misolda esa buyruq-xitob undovi hayvonlarni to'xtatish, ya'ni tuyalarni cho'ktirish uchun qo'llangan.

Abdulla Qahhorning **"Millatchilar"** hikoyasidan bir misolni ko'rib chiqaylik.

Tavhidiy bu darajada itdan qo'rqib, Mirza Bahromni yiqitganiga xijolat bo'ldi va o'zini oqlashga kirishdi.

— Ayb o'zingizda. Bir vahima qilasizki, "Qoch!" desangiz, nima ekan, debman. Bu itni men bilaman — Qosimjon boyvachchaning itlari, meni taniydi... Mah, To'rtko'z, mah! Ha, betavfiq! Yuvosh eding-ku!

It yana irilladi. Mirza Bahrom tizzasini mahkam ushlagancha, aftini burishtirib dedi:

— Bilaman, Qosimjon boyvachchaning itlari. Bilganim uchun qo'rqdim-da. Ko'p yomon it, indamasdan ilikdan oladi.

Buning oti To'rtko'z emas, Arslon... Mah, Arslon, mah!

(Abdulla Qahhor)

A. Qahhorning bu hikoyasi hajviy ruhda yozilgan bo'lib, unda soxta millatparvarlik, mansabparastlik va ikkiyuzlamachilik tanqid qilinadi. Hikoya qahramonlari bo'lgan ikki oshna — Tavhidiy va Mirza Bahrom bir-biriga doimiy raqobat qiladigan, Qosimjon boyvachchaga yaqinroq ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lgan, hatto itini ham o'ziga tanish ekanligini isbotlamqchi bo'lgan xushomadgo'y, shaxsiy manfaatni o'ylaydigan kishilardir. Yozuvchi ularning ikkiyuzlamachiligini ochib berish uchun buyruq-xitob undovlaridan maqsadli foydalangan. Arslon (To'rtko'z) hikoyadagi ramziy obrazdir. Ikki oshna itni sinab ko'rib, uning kimga ko'proq yaqinligini aniqlashga urinadi. Itning qaysi nomga javob berishi ustidagi bahs voqealarning kulgili va kinoyali tus olishiga sabab bo'ladi.

Bulardan tashqari, buyruq-xitob undovlari nafaqat hayvonlarga, balki kishilarga nisbatan ham ishlatiladi. Bu holatda hayvonlardan farqli ravishda faqat buyruq berish emas, balki murojaat qilish, chaqirish, to'xtatish kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan:

Hoy! Bu yoqqa kel. — chaqirish.

Hey! Meni eshityapsanmi? — murojaat qilish.

Ho'sh! Endi ishni boshlaylik. — e'tiborni tortish.

Badiiy adabiyotlarda buyruq-xitob undovlari vaziyatni aniqlashtirish, subyektiv bahoni bildirish maqsadida pragmatik ma'noni ifodalaydi. Bunday buyruq-xitob undovlari so'zlovchining tinglovchiga nisbatan buyruq, chaqiriq, da'vat, ogohlantirish yoki taqiq kabi maqsadlarini ifodalaydi. Ular nafaqat his-hayajonni, balki suhbatdoshning xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatish vazifasini ham bajaradi. Demak, buyruq-xitob undovlari suhbatdoshning harakatiga turli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni harakatga undash, harakatni to'xtatish, harakatni taqiqlash kabi.

Masalan:

Qani! — harakatga undash.

Hoy! — diqqatni jalb qilish, ogohlantirish.

Hey! — chaqirish, murojaat qilish.

To'xta! — harakatni to'xtatish.

Bas! — taqiqlash, cheklash.

Olg'a! — ruhlantirish, da'vat.

Masalan:

Faxriddin kirganda Mehri endi uyqudan turgan ekan.

— E, ho'y!.. Yaxshimisan... ho'y! — dedi Faxriddin.

Uning gaplariga quloq solib, raftorini kuzatib turgan hamshira:

— Kasalni toliqtirib qo'yasiz, bas! — dedi va eshikni ko'rsatdi.

(Abdulla Qahhor)

— Qorong'i tushguncha dashtdan chiqib olmasak bo'lmaydi, hali ko'rding-ku, dashtda shunaqa kaltakesaklar ko'p bo'ladi. Bo'!

(Abdulla Qahhor)

Matnda buyruq-xitob undovlarining pragmatik ma'nosi mazkur nutq birliklarining muayyan kommunikativ vaziyatda qanday maqsad bilan qo'llanishi, so'zlovchining qanday kommunikativ niyatini ifodalashi hamda tinglovchiga qanday ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi. Bunday undovlar faqatgina buyruq yoki chaqiriq mazmunini ifodalab qolmay, balki nutq jarayonida da'vat etish, ogohlantirish, to'xtatish, shoshiltirish, tinchlantirish, undash, e'tiroz bildirish, norozilikni ifodalash yoki suhbatdosh e'tiborini muayyan holatga qaratish kabi turli pragmatik vazifalarni ham bajaradi. Shu sababli ularning mazmunini faqat lug'aviy ma'no asosida emas, balki kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi

munosabat hamda intonatsion xususiyatlar bilan bog'liq holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, badiiy matnda buyruq-xitob undovlarining pragmatik imkoniyatlari yanada keng namoyon bo'ladi. Ular personajlarning bir-biriga munosabatini, ijtimoiy mavqei, ruhiy holatini va vaziyatga bo'lgan emotsional reaksiyasini ochib berishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Bir xil undov turli nutqiy sharoitlarda keskin buyruq, iltimos, ogohlantirish, tahdid, rag'batlantirish yoki hissiy ta'sir ma'nosini ifodalashi mumkin. Demak, buyruq-xitob undovlarining pragmatik ma'nosi ularning kommunikativ maqsadi, kontekstual vazifasi va tinglovchiga yo'naltirilgan ta'sir kuchi asosida shakllanadi. Ushbu undovlarning asosiy pragmatik ma'no va funksiyalarini quyidagi jadval orqali umumlashtirish mumkin.

1- jadval.

Buyruq-xitob undovlarining pragmatik ma'nosi			
№	Pragmatik ma'no	Mazmuni	Misol
1	Buyruq berish	So'zlovchi tinglovchidan muayyan harakatni bajarish talab qiladi.	Qani, ishni boshlang!
2	Chaqirish va da'vat etish	Tinglovchini biror ishga undaydi yoki faol harakatga chorlaydi.	Olg'a! Vatanga xizmat qilaylik!
3	Ogohlantirish	Xavf yoki noxush holat haqida ogohlantiradi.	Hoy! Mashina kelyapti!
4	To'xtatish yoki taqiqlash	Harakatni darhol to'ztatishga undaydi	Bas! Yetar! To'xta!
5	Diqqatni jalb qilish	Tinglovhining e'tiborni o'ziga qaratadi.	Hey! Bu yoqqa qarang!
6	Rag'batlantirish	Ruhlantirish, dalda berish yoki qo'llab-quvvatlash maqsadini ifodalaydi.	Qani, davom eting! Barakalla!

Xulosa qilib aytish mumkinki, buyruq-xitob undovlarining pragmatik xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Nutqning kommunikativ maqsadini amalga oshiradi.
2. Tinglovchining xatti-harakatiga bevosita ta'sir etadi.
3. Ma'nosi intonatsiya, vaziyat va muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatga bog'liq holda o'zgaradi.
4. Ko'pincha buyruq maylidagi fe'llar bilan birga qo'llanib, ta'sir kuchini oshiradi.

Demak, buyruq-xitob undovlarining pragmatik ma'nosi ularning tinglovchiga ta'sir ko'rsatish vazifasida namoyon bo'ladi. Bunday undovlar orqali so'zlovchi buyruq beradi, chaqiradi, ogohlantiradi, taqiqlaydi, diqqatni jalb qiladi yoki rag'batlantiradi. Shuning uchun ular nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi muhim pragmatik vositalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan tashqari, ko'rsatishni ifodalovchi **huv, hu, ho'v** kabi so'zlar, urf-odat va minnatdorchilikni ifodalovchi **salom, alik, hormang, bor bo'ling, rahmat, tashakkur, barakalla, ofarin, balli** kabi so'zlar ham undovlardir [2: 441].

Masalan:

Turobjonning tepa sochi tikka bo'ldi.

— Hay, sening dimog'-firog'ing kimga! Xo'sh, nima deysan?

(A. Qahhor)

— Barakallo, o'g'lim, barakallo, — dedi Hoji kursiga ehtiyot bilan o'tirayotib. — Umringiz uzoq bo'lsin. Ko'pdan-ko'p xursand bo'ldim... O'g'il degan shundoq bo'lsin, otasini rozi qilsin.

(A. Qahhor)

Assalomu alaykum. Dushanba tongi muborak bo'lsin. Sog'-salomat uyg'otgan Robbimizga hamdlar bo'lsin...

— Eee, quda!? Assalomu alaykum. Ha, ertalabdan suyunchilik xabar bilan bezovta qilyapman. Qizimizdan xabar keldi. Ha! Haa! Ahvoli yaxshi ekan! Doktor hatto juda yaxshi dedi. Kechga tomon ko'rishimizga ruxsat berishdi. Albatta, albatta. Mayli bo'lmasa, o'sha yerda ko'rishamiz.

(https://t.me/Xazon_Rezgi/32477)

Xulosa qilib aytganda, emotsional, ya'ni his-hayajon va turli ruhiy kechinmalarni ifodalovchi undovlar hamda buyruq-xitob undovlari semantik jihatdan ko'p qirrali til birliklari hisoblanadi. Ular badiiy matnda qahramonning voqea-hodisa, suhbatdosh yoki muayyan vaziyatga nisbatan ijobiy va salbiy munosabatini ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur undovlarning semantik imkoniyati keng bo'lib, ularning qanday ma'noni anglatishi alohida holda emas, balki nutqiy vaziyat, kontekst, ohang va personajning ruhiy holati bilan uzviy bog'liq ravishda aniqlanadi. Shu jihatdan bir undov turli kontekstlarda so'roq, taajjub, ajablanish, hayrat, ishonchsizlik, ikkilanish, sevinch, mamnunlik, qayg'u, xafalik, qo'rquv, achinish, bezovtalik, e'tiroz, qanoatlanmaslik, norozilik, ogohlantirish, g'azab, nafrat, jirkanish, mensimaslik va kamsitish kabi emotsional-ekspressiv ma'nolardan birini yoki bir nechtasini bir vaqtning o'zida ifodalashi mumkin. Aynan mana shu kontekstual ko'pma'nolilik undovlarning badiiy matndagi lingvopoetik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ular personaj nutqining tabiiyligi va jonliligini ta'minlash, ruhiy holatni bevosita aks ettirish, muallifning kommunikativ-estetik niyatini yuzaga chiqarish hamda matnning umumiy ta'sirchanligini kuchaytirishda muhim stilistik vosita vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. — Toshkent: Fan, 2008. — 159 b.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. — Toshkent: O'qituvchi, 1980. — 467 b.